Bo'lajak muhandislarni grafik dasturlar yordamida loyihaviy-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish (muhandislik va kompyuter grafikasi fani misolida)	964
Madaminov Javlonbek Zafarjonovich	
Ijodiy tafakkurni rivojlantirishda interaktiv darsliklarning pedagogik imkoniyatlari	968
Mirzaakbarov Dilshod Dovlatboyevich	
Sog'lom turmush tarzi – jismoniy madaniyati sohibi sifatida jismoniy mashqlar komplekslarini tuzish va bajarishda amal qilinadigan qoidalar	971
Musayev Zarifjon Tursunaliyevich	
Bo'lajak defektologlarning pedagogik mas'uliyatini oshirish	974
Nodira Mirboboyeva	
Bo'lajak o'qituvchilarni kreativ yondashuv asosida innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasini takomillashtirish modeli	977
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi	
O'quvchini muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishda kitobxonlikning o'rni.....	981
Qurbanova O'g'iloy Axrorovna	



Sharq mutafakkirlari asarlari vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy faollik ko'nikmalarini rivojlantirishning afzalliklari	985
Rejabboyeva Muxarram Odiljon qizi	
Pedagogik ta'lim jarayonida raqamli nazorat tizimlaridan foydalanish samaradorligi va rivojlantirish yo'nalishlari	989
Samijonov Azizbek Ismoiljon o'g'li	
Dizatriya nutq kamchiligini bartaraf etishda muassasa, logoped va oilaning hamkorligi	992
Shermatova Yukut Sabirovna	
Kulolchilik va an'anaviy o'yinchoqlarni o'quvchilar kasb tanlash jarayonida qo'llash metodikasi	995
Soliyeva Diyora Bobur qizi	
O'zbekistonda inkluziv ta'lim va uning me'yoriy-huquqiy asoslari	998
Temirov Nabijon Soliyevich, Esonova Klaraxon Mahmamin qizi	
Oila va xotin-qizlar tizimida kollaborativ madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari	1001
Tojibayeva Nazokatxon	
Sun'iy intellekt yordamida talaffuz va tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	1005
Tojiyev Olimjon Haqberdi o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim tizimi muammo va istiqbollari sotsiologik tadqiqotlar asosida	1008
Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi	
Oliy ta'lim talabalarida integrativ yondashuv asosida tanqidiy fikrlash kompetentligini rivojlantirish metodikasi	1011
Xalimova Mashraboy Vaxidovna, Botirova Mavluda To'xtasin qizi	
5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari	1015
Xolboyeva Gulnora Ulashovna, Dolliyeva Xayrigul Namoz qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lishi psixologik fenomen sifatida	1018
Xoshimova Y. I.	
Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogik va psixologik yondashuvlarning mazmuni	1023
Xudoyqulova Aziza Anvar qizi	
Pedagogik ta'limda mediakompetentlikni shakllantirish jarayonida raqamli resurslardan foydalanish samaradorligi	1026
Yuldashov Sherzod Sattorovich	
Особенности развития эмоционального интеллекта у дошкольников	1029
Жамолова Зарнигор Баходир кизи	
Стратегии лингвистического моделирования в обучении русскому языку и их роль в формировании идентичности студентов	1033
Рузметова Наргиза Ахмедовна, Рузметова Хилола Абдушориповна	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini matematik mushohada yuritishga o'rgatish	1038
Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi	
Tarbiyachi inklyuziv kompetentligi va zamonaviy ta'limda uning o'rni	1041
Haydarova Namuna	
Using Story-Based Role-Play Activities to Enhance Speaking Skills of Primary School Learners	1044
Mohigul Nizomiddinova	
Axborot va telekommunikatsion vositalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabalarni badiiy qadriyatlarga qiziqtirish	1049
Soliyeva Maftuna Tirkash qizi	
Ruhiy rivojlanishning susayish sabablari va klinik xarakteristikasi	1053
Xamrayeva Iroda Sayfullayevna	
Ona tili darslarida zid ma'noli so'zlarning o'quvchilar nutqini rivojlantirishdagi vazifalari	1056
Xusanova Gulruxsor To'liqin qizi	
Ta'lim tizimida neyrolingvistik dasturlash (NLD)ning ilmiy-metodologik asoslari	1059
Xolikova Dilobarxon Maxsitovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida milliy identitet va vatanparvarlikni shakllantirish texnologiyalari	1062
Primkulova Iroda Berdimurodovna	
Informatika o'qitishda veb texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati	1067
Xatamqulova Gulsanamxon Salimjonovna	
Talabalarining ingliz tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishda interaktiv metodlardan foydalanish	1071
Esmuratov Muzaffar Elamonovich	



Bo'lajak maxsus pedagoglarni korreksion mashg'ulotlarda logotexnik mashqlar tizimidan foydalanishga tayyorlash omillari.....	1073
Maxmudov Xurshidjon Shuxratovich	
Inklyuziv ta'lim jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarini antroposentrik yondashuv asosida tarbiyalash mexanizmi	1076
Oppoxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g'li	
Nutqida muammosi mavjud bolalarning ijtimoiy adaptatsiya xususiyatlarini o'rganishning pedagogik asoslari	1081
Ne'matullayeva Mushtariy Laziz qizi	
Mutaxassislik modullarini integrativ o'qitishning mazmuni va shart-sharoitlari	1084
Maxmudova Madinaxon Sobirxonovna	



MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNI KASBGA QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI



Isabekova Dilafruz Shermirzayevna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası katta o'qituvchisi

Gazibekova Gulavza Ergashovna

Angren universiteti "Pedagogika va psixologiya"
kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0007-6092-2129

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning kasbga qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari yoritilgan. Unda bolalarda kasb-hunarga qiziqishning dastlabki shakllanish jarayonlari, ta'lim va tarbiyada o'yin faoliyatining o'rni, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, didaktik va integrallashgan ta'limning ahamiyati, qiziqish va motivatsiyaning shakllanishi, shuningdek, ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishning roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, kasbga qiziqish, pedagogik jarayon, psixologik xususiyatlar, "Ilk qadam" dasturi, motivatsiya, o'yin faoliyati, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, erta kasbga yo'naltirish, ijtimoiy ko'nikmalar.

Abstract: This article highlights the pedagogical and psychological features of developing professional interests among senior preschool children. It examines the initial stages of forming interest in professions, the role of play activities in education and upbringing, the importance of a learner-centered approach, didactic and integrated education, the development of interest and motivation, as well as the role of fostering social skills. The article also analyzes the significance of introducing professional knowledge to children based on the "Ilk Qadam" program and the educator's role in this process. The findings prove that developing career interests at preschool age plays a crucial role in shaping children's future professional motivation.

Key words: preschool education, career interest, pedagogical process, psychological features, "Ilk Qadam" program, motivation, play activity, learner-centered approach, early career orientation, social skills.

Аннотация: В данной статье освещаются педагогические и психологические особенности формирования профессиональных интересов у детей старшего дошкольного возраста. Рассматриваются начальные этапы формирования интереса к профессиям, роль игровой деятельности в обучении и воспитании, значение личностно-ориентированного подхода, дидактического и интегрированного обучения, процесс формирования интереса и мотивации, а также роль развития социальных навыков. Кроме того, анализируется содержание ознакомления воспитанников с профессиями на основе программы "Ilk Qadam" и роль педагога в этом процессе. Результаты исследования доказывают, что формирование профессиональных интересов в дошкольном возрасте играет важную роль в развитии мотивации к будущему выбору профессии.

Ключевые слова: дошкольное образование, профессиональный интерес, педагогический процесс, психологические особенности, программа "Ilk Qadam", мотивация, игровая деятельность, личностно-ориентированный подход, ранняя профориентация, социальные навыки.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasiga jiddiy e'tibor bilan qarash zarurligini davlat siyosati darajasigacha olib chiqqanliklari yoshlar tarbiyasida pedagoglarning faoliyatini nechog'liq muhimligi va bunda alohida mas'uliyat bilan faoliyatga yondashish zarurligini ko'rsatadi¹. Bolalarning mehnat faoliyatlarini o'zida qamragan mashg'ulotlar asosan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktyabrdagi PF-6097 son "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni

maktabgacha yoshdagi davrdan boshlanadi. Bu yoshda bolalarning mehnatlari juda sodda va elementar bo'lsa ham, ularning psixik taraqqiyotida juda katta ahamiyatga egadir. Katta yoshdagi bolalarning kasblarga qiziqishi kattalar faoliyatlariga taqlid qilishlarida, dastavval, bolalarning o'yinlarida namoyon bo'ladi. Bolalar kattalarning kasblaridagi faoliyatlarini o'zlarining o'yinlarida taqliddan takrorlash bilan cheklanib qolmay, balki kattalar kasbida bevosita qatnashish uchun harakat qila boshlaydilar. Bu yoshdagi bolalarning kasbdagi natijaga emas, balki mehnat jarayonining o'ziga qiziqishi psixologik jihatdan xarakterlidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Psixologlar 5–6 yoshli bolalarni dunyoni o'zgalar nigohi bilan ko'rishga o'rgatish zarur deb hisoblaydilar². Bu unga o'z egosentrizmini yengishga yordam beradi, bola faqat o'z fikrini, o'ziga ma'qul narsalarni, masalan, taomni, o'yinchoqni, o'yinni talab qilavermay, o'zgalar fikri, xohish-istaklarini ham hisobga olishga o'rganadi. Kattalar kasbi bilan tanishtirish ham bolani dunyoni o'zgalar nigohi bilan ko'rishga va his qilishga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni kattalarning kasbiy faoliyati bilan tanishtirish uchun o'yin faoliyatining ahamiyatini o'rganish o'yin nazariyasiga murojaat qilish bilan uzviy bog'liq bo'lib, uning asoschilari F.Shiller, G.Spenser, V.Vundt. XIX asr psixologiyasining funktsional-analitik yondashuvi o'yinni allaqachon yetuk psixologik qobiliyatning faollashishi natijasida talqin qilishdan iborat edi³. Tasavvur yoki fantaziyaning namoyon bo'lishi bolaning o'yinlari (K.D.Ushinskiy, J.Selli, K.Buller, K.Groos, V.Stern), tafakkurning rivojlanishi bilan bog'liq edi. J.Piaget bolalar o'yinlari haqidagi bilimlarni rivojlantirishga muhim hissa qo'shgan va birinchi navbatda, bolaning hissiy-motor faoliyati va uning operatsion fikr shakllari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rnatish, "belgilovchi" o'rtasidagi farqni ta'kidlashda va ramziy o'yinda "belgilangan"; u o'yinda taqlid qilish muammosini rivojlantirishni ilgari surdi. Inson biror kasbni egallashi uchun o'qishi va ta'lim olishi lozim. Kasbga qiziqishni biz eng avvalo yoshlikdan bolalarda ayniqsa, maktabgacha bo'lgan davrda rivojlantirishimiz lozim. Buning uchun biz bolalarning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ularni kelajakda turli zamonaviy kasblarni tanlashga qiziqishlarini rivojlantirish lozim. Har qanday inson, jumladan, maktabgacha yoshdagi bola ham yoqimli va yoqimsiz hissiyotlar qurshovida yashaydi. Yoqimli hissiyotlarga quvonch, hayrat, qiziqish kabilar kirsar, yoqimsiz hissiyotlarga qo'rquv, alam, jirkanish, nafrat, uyalish kabilarni kiritish mumkin. Boshqa yoqimli hissiyotlar kabi qiziqish har bir inson hayotida muhim o'rin egallaydi. Qiziqish faol ruhiy kategoriya sifatida bolaning kelajakda kasb tanlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Psixologiyada kasb tanlashda qiziqish (o'quv-biluv, kasbga qiziqish), moyillik, layoqat, xarakter, temperament kabi subyektiv omillar, shuningdek, salomatlik holati, tayyorgarlik darajasi, kasblar olamidani qanchalik xabardorligi kabi obyektiv omillarning ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Shuningdek, kasb egallashda motivlar, ular bilan bevosita aloqador bo'lgan qiziqish, ehtiyoj va moyilliklarga ham katta e'tibor beriladi.

Shaxsni kasbiy yo'lini belgilash – insonda muayyan kasb haqida tasavvur, tushuncha va qiziqishlarning rivojlanishi orqali unga moyillikning yuzaga kelishi demakdir.

Qiziqish insonga xos ijobiy mohiyatga ega bo'lgan yoqimli hissiyot. U insonni atrof-olamni idrok etish va bilishga intilish tuyg'ularini qanoatlantiruvchi muhim psixik kategoriyalardan hisoblanadi. Qiziqish sababli bolada o'rganilayotgan narsaga, obyektga nisbatan e'tibor, u bilan ko'proq shug'ullanish ehtiyoji vujudga keladi. Pedagogik atamalar lug'atida qiziqishga shunday ta'rif beriladi: "Qiziqish:

- 1) obyekt yoki hodisani anglash va biror faoliyat turini o'zlashtirishga moyillik;
- 2) o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa va hodisaga munosabat"⁴.

Maktabgacha yosh davrida bolada o'rganilayotgan narsalarga nisbatan qiziqish juda yuqori darajada namoyon bo'ladi⁵. Chunki bolalik davri inson hayotining eng qiziquvchan pallasi hisoblanadi. Bolalikka xos qiziquvchanlikdan samarali foydalanish, uni aynan bola hayotining zarur sohalariga yo'naltirish muhim ahamiyatga ega. Kasbga yo'naltirish, kasbni to'g'ri tanlash muhim tanlov bo'lib, uning butun hayot yo'lini belgilab beradi. Bu jarayonning tamal toshi esa aynan maktabgacha yosh davrida qo'yiladi. Maktabgacha ta'lim davrida kasbga yo'naltirishning yana bir ahamiyatli jihati u bolani ijtimoiylashtirish tomon qo'yilgan ilk pedagogik-psixologik ta'sir vositasi vazifasini ham bajaradi. Maktabgacha ta'lim yoshi davrida bolalarni kasbga qiziqitirish jarayoni ularda kattalarning kasbiy faoliyatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni tarkib toptirish bilan baqamti kechishi lozim⁶. Bola qanchalik kichiklikdan kasblar olamini o'rganishga kirishsa, uning istiqbolda o'zi

2 Jalilova S.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi O'quv qo'llanma 2017 yil

3 Vygotskiy, L. S. Bolalik va o'yin: Psixologik tadqiqotlar. – Toshkent, 2021. – B.

4 Djuraev R. X., Tollpov O'Q., Safarova R.G'., To'raqulov X.O., Inoyatova M.E., Divanova D.S. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Fan, 2008. – B. 160-162

5 Raxmonqulova Z., To'ychiyeva M., Yo'ldosheva G. Maktabgacha ta'lim metodikasi. – T.: O'qituvchi, 2020. – B. 34

6 Yo'ldosheva G. A., Raxmonqulova Z. M., Qodirova D. D. "Maktabgacha ta'limda bolalarni kasb-hunarga yo'naltirish asoslari." – Toshkent, 2019. – B. 120



istagan kasbini tanlashi va hayotda o'z o'rniga ega bo'lishi shunchalik oson kechadi. Masalaning ahamiyatli jihati yana shundaki, bu nafaqat bola uchun, balki jamiyat uchun o'ta ahamiyatli masala hisoblanadi. Zero, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy rivojlanishi kadrlar salohiyatiga, ularni o'z kasbga sidqidildan munosabatda bo'lishiga, kasbini sevib, bajonidil mehnat qilishiga, u tufayli o'z-o'zini va atrofdagilarni baxtli qilishiga bog'liq⁷.

Ijtimoiylashtirishning to'g'ri yo'lga qo'yilishi bolaning maktabgacha yosh davridan boshlab o'zligini anglashi, "Men-konsepsiya" sini jamiyat bilan uyg'unlikda idrok etishida ustuvor o'rin egallaydi.⁸

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasblar bilan tanishtirish aniq maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon hisoblanadi.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarga kattalarni kasblar bilan tanishtirishning asosiy maqsadi:

- kasblar haqida aniq bilim va tushunchalar berish;
- kasblarga nisbatan qiziqish va xohishni uyg'otish;
- barcha kasblar muhimligini va uning jamiyat hayotida ahamiyatini bola ongiga singdirish;
- kattalar mehnatini qadrlash va hurmat qilishni tarbiyalash.

Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishni rivojlantirishda tarbiyachi har bir bolaning qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularni shu kasbga yo'naltirishlari lozim. Bolalarning kelajakda qanday inson bo'lishlari va qaysi kasbni egallashlari aynan maktabgacha yosh davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Bizning maqsadimiz ham yurtimiz ravnaqiga hissa qo'shadigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. Shu sababdan, maktabgacha yosh davridan bolalarni kasb tanlashga qiziqishni rivojlantirish muhim hisoblanadi. Yuqoridagi tavsiflarga asoslanib, kasb-hunar tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: kasb-hunar mehnat mazmuniga ega bo'lib, shaxs qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq egallanadigan, inson va jamiyat taraqqiyoti hamda farovonligiga xizmat qiladigan ijtimoiy foydali insoniy faoliyatdir. Kasbga yo'naltirish - har qanday yoshdagi insonga kasb tanlashda ko'maklashish uchun qo'llaniladigan bir qator tadbirlar majmuidir. Kasbga yo'naltirishning umumiy tamoyillari (onglilik, muvofiqlik (shaxs qiziqishlari qonuniyatlari bilan jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarga nisbatan ehtiyojning mos kelishi); kasb tanlash faolligi, rivojlantirish (kasbning shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi) hamda umumpedagogik tamoyillar bilan uyg'unlashgan o'ziga xos tamoyillari (kasb-hunarga yo'naltirishning hayot bilan, mehnat va amaliyot bilan bog'liqligi, mehnat tayyorgarligi bilan bog'liqligi, mehnat ta'lim-tarbiyasining yaxshi yo'lga qo'yilishi kabilar⁹) mavjud.

Erta kasbga yo'naltirish – bolalarni kasbga qiziqitirish, kasblar bilan tanishtirish va ularda kasbiy tasavvurlarni shakllantirishga oid maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan bir qator tadbirlar majmuini qamrab oladi¹⁰.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida erta kasbga yo'naltirish bolalarni uyushqoqlik, mehnat jarayoniga shaxsiy tashabbus bilan qo'shilish, mehnat faoliyatida o'z-o'zini nazorat etish, o'z-o'ziga baho berish, boshlagan ishini oxiriga etkazish, mehnatga ma'suliyat bilan yondashish kabi sifatlar bilan birga, o'zgalar mehnati natijasiga hurmat va ularning kasbga qiziqishni tarbiyalashni o'z ichiga oladi.

Kasb-hunar bilan tanishtirish quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- har bir kasbning ijtimoiy mohiyati;
- mehnat ahli o'rtasidagi ijobiy o'zaro yordam berish munosabati;
- har qanday kasb ham muhim ekanligini tushuntirish.

Shuningdek, ushbu jarayonda mehnat faoliyatining quyidagi asosiy tarkibiy qismlari bilan tanishtiriladi:

- mehnatning maqsadi, uning ijtimoiy ahamiyati;
- materiallarni tanlash (kasb-hunarga va mehnatga oid materiallar);
- jihozlash (mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan asboblarni tayyorlab olish);
- mehnat jarayoni (maqsadga erishish uchun bajariladigan mehnat harakatlari);
- natija – mehnat mahsuloti.¹¹

7 Toshkent sh., 2020-yil 18-fevral, PF-5938-son Farmon. <https://lex.uz/docs/-4740345>

8 Grosheva I. V., Mirziyoyeva Sh. Sh., Yevstafyeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixanova Sh. B., Pak S. V., Nazarova V. A., Isxakova M. R., Abdunazarova N. F. "Ilk qadam" DO'D 2022 yil 4-fevral

9 Abduqusov O. Kasb ta'limi o'qituvchilari tayyorlashga integrativ yondashuv. – T.: "Fan", 2004. – B. 30

10 Maktabgacha yoshdagi bolalarning qiziqishlarini kasb-hunar tanlashga yo'naltirish zarurati N.N.Djamilova

11 https://efayl.uz/document/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-mehnat-tarbiyasi/?utm_source



5-7 yoshli bolalar katta yoshlilar mehnatiga qiziqishadi, biror mehnat jarayonini bajarishda kattalar bilan birga qatnashish yoki biror narsani mustaqil bajarishga ishtiyoqmand bo'lishadi. Ular faoliyatlari kichik maktabgacha yoshdagilarga nisbatan anchagina maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bolalarda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim:

- 1) katta guruhlarda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish, xo'jalik mehnati, yer chopish, ko'chat ekish, ko'chatlarga suv quyish kabi tabiat bilan aloqador mehnat turlarini, shuningdek, qo'l mehnatini tashkil etish;
- 2) "Maktabgacha ta'lim tashkiloti ta'lim-tarbiya o'quv dasturi" orqali mehnat uchun ajratilgan vaqtdan to'liq foydalanish. Bolalarni mehnat turlariga muntazam jalb qilish;
- 3) bolalar mehnat faoliyatining yakka va jamoa turlaridan foydalanish;
- 4) bolalar mehnatiga rahbarlik qilish metod va usullarini ta'lim-tarbiya vazifalariga muvofiq tanlash;
- 5) mehnat turlarini bolalar faoliyatining boshqa turlari bilan oqilona uyg'unlashtirish;
- 6) maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni kasb-hunarga qiziqitirish muhitini ta'minlash kabilar.¹²

Odatda, maktabgacha ta'lim tashkilotida katta maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning kun tartibida o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish mehnati sezilarli o'rinni egallaydi.

Pedagoglar bolada o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish: mustaqil yuvinish, kiyinish ko'nikmasini shakllantirishda davom etadilar, bolalardan yuvinish, yechinish, ovqatlanish tartibini aniq bilishni, ularni o'z vaqtida va aniq bajarishni talab qiladilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur mavzu bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish va ularni ilmiy tahlil qilish jarayoniga asoslanadi. Ma'lumotlar asosan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, mavjud ilmiy adabiyotlar hamda ilg'or xorijiy va mahalliy tadqiqotlardan olindi. Shuningdek, pedagogik kuzatish va taqqoslash usullaridan foydalanilib, maktabgacha katta yoshdagi bolalarda kasbga qiziqishning shakllanishi bo'yicha mavjud tajribalar o'rganildi. Olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, mazmuniy jihatdan guruhlarga ajratildi va ilmiy tahlil qilindi. Analitik yondashuv asosida ularning pedagogik va psixologik jihatlari aniqlanib, umumlashtirilgan xulosalar chiqarildi. Shu tariqa, tadqiqot jarayonida nazariy manbalar bilan amaliy tajribalar o'zaro taqqoslanib, ilmiy asoslangan natijalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Biz adabiyotlarni tahlil qilish orqali maktabgacha katta yoshdagi bolalarni kasbga qiziqishlarini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini aniqlashtirdik.

Pedagogik xususiyat	Psixologik xususiyat
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	Qiziqish va motivatsiyaning shakllanishi
Didaktik yondashuv	Imitatsion faoliyat (rolga kirishish)
Integrallashgan ta'lim	Xotira, e'tibor va tasavvur rivoji
Faollik va mustaqillikni rag'batlantirish	Sotsial ko'nikmalarni rivojlantirish

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv- Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uli yat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy qadriyatining bunday e'tirof etili shi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak¹³.

- **Didaktik yondashuv** – mazmuni va maqsadi bolalarga ma'lum bilim va ko'nikmalar berish, ularning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat bo'lgan faoliyatdir. Didaktik o'yinlar bolalarning sezish qobiliyatlarini rivojlantira di, atrof-muhitni idrok etish jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi¹⁴.

¹² https://ilmiybaza.uz/document/maktabgacha-yoshdagi-bolalarni-mehnat-turlari/?utm_source

¹³ Mirziyoeva A. V., Grosheva Sh.Sh., Mikailova I.V., Suleymanova U.T., Daukaeva Yu.T., Vlasova A.G., Galimova E.F Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish metodik qo'llanma (birinchi nashr). – Toshkent, 2020. – B..

¹⁴ Grosheva I. V., Djanpeisova G. E., Mikailova U. T., Ismailova M. A., Kenjabaeva D. A., Gulyamova N. B., Miftaeva N. A. O'yin orqali ta'lim olish metodik qo'llanma (birinchi nashr) – Toshkent, 2020. – B.



- **Integrallashgan ta'lim** – Integratsiya pedagogik hodisa sifatida turli bilimlar, usullar va faoliyat turlarining o'zaro kirib borishi, o'zaro bog'liqligi va sintezi jarayoni va natijasi sifatida tushuniladi. Bunday jarayon, albatta, turli modullar bo'yicha ta'lim mazmunidagi izchillikni, shuningdek, ta'limning umumiy maqsadlari bilan belgilanadigan o'qitish shakllari, usullari va vositalarini tanlashni nazarda tutadi¹⁵.
- **Faollik va mustaqillikni rag'batlantirish** – faollik va mustaqillikni rag'batlantirish – bu tarbiyalanuvchini mustaqil fikrlashga, tashabbus ko'rsatishga va faol ishtirok etishga undaydigan ta'limiy yondashuv bo'lib, uning shaxsiy rivojlanishi va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.
- **Qiziqish va motivatsiyaning shakllanishi** – Qiziqish va motivatsiya - insonning o'zini o'rab turgan dunyoga faol munosabatini belgilovchi muhim omillardir. Qiziqish ma'lum bir narsaga yoki hodisaga nisbatan yoqimli munosabatni anglatadi. Motivatsiya esa maqsadga erishish uchun harakat qilishga undovchi ichki kuchdir. Ularning shakllanishi turli omillarga bog'liq bo'lib, ta'lim, tarbiya va atrof-muhit muhim rol o'ynaydi¹⁶.
- **Imitatsion faoliyat (rolga kirishish)** – bu tarbiyalanuvchining hayotiy voqealarni, kishilar faoliyatini yoki rollarini ma'lum sharoitda taqlid asosida ijro etish faoliyatidir. Bu jarayonda bola yoki o'quvchi o'zini boshqa birovning o'rnida tasavvur qilib, uning harakatlarini, his-tuyg'ularini va nutqini aks ettirishga harakat qiladi.
- **Xotira, e'tibor va tasavvur rivoji** – tarbiyalanuvchilarda xotira, e'tibor va tasavvur rivoji – bu maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy faoliyatning shakllanishi va rivojlanish jarayonining muhim yo'nalishlaridan biridir. Ushbu psixik jarayonlar bolaning o'qish, o'rganish, eslab qolish, nutq rivoji hamda ijodiy fikrlashining poydevorini tashkil etadi.

Sotsial ko'nikmalarni rivojlantirish- Sotsial ko'nikmalarni rivojlantirish – bu tarbiyalanuvchilarda jamiyatda yashash, muloqot qilish, hamkorlikda harakat qilish, o'zini tutish, ijtimoiy qoidalar va odob me'yorlariga rioya qilish kabi muhim ijtimoiy xatti-harakatlarni shakllantirish jarayonidir.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" dasturiga binoan har bir yosh guruhidagi tarbiyalanuvchilar kattalar mehnati to'g'risida quyidagi bilim va tasavvurlarni egallab olishlari lozim:¹⁷

Kichik guruh:

- 1) ayrim kasb egalarining mehnat jarayoni;
- 2) mehnat jarayonidagi mehnat harakatlari;
- 3) mehnat jarayonini amalga oshirish uchun kerakli material;
- 4) ma'lum bir mehnat jarayonini bajarish uchun jihozlar;
- 5) mehnat natijasi;
- 6) kishi mehnatining ijtimoiy ahamiyati kabilar.

O'rta guruhda mehnat to'g'risida qo'shimcha tasavvur va bilimlar beriladi: jumladan;

- 1) harakat sifati haqida;
- 2) kishining mehnatini yengillatuvchi moslamalar to'g'risida;
- 3) kishilarning mehnatga muhabbati haqida.

Katta va maktabgacha tayyorlov guruhida esa yana yangi tasavvur va bilimlar beriladi:

- 1) kishilar mehnatini yengillatadigan mashina va mexanizmlar to'g'risida;
- 2) kishilar mehnati jamoa xarakterida ekanligi haqida;
- 3) jamoa mehnati jarayonida kishilarning o'zaro munosabatlari to'g'risida;
- 4) mehnat qahramonlari, xalq mehnat an'analari haqida.¹⁸

Kasbga yo'naltirish yoshlarga ularning qiziqish, layoqat, qobiliyatlariga va jamiyatning turli xil kasblarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq holda kasb tanlashga yordam beruvchi maqsadli faoliyatdir. U fanlararo rivojlanuvchi nazariya va amaliyotning birligi asosida vujudga kelib, o'quv-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bunda asosiy rolni nazariya egallaydi. Ya'ni muayyan nazariya asosida u yoki bu g'oya shakllanadi, u amaliy ishni ilmiy-amaliy ishga aylantiradi. Nazariya faoliyat kabi tez hosil bo'lib, yillar mobaynida rivojlanadi. Kuzatish va tadqiqot natijasida nazariya shakllantiriladi va u asosiy faoliyatni ixchamlashtirishga xizmat qiladi.

15 Jo'raev R. X., Tolipov O. Q., Sharipov Sh. S. Uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari. – T.: Fan, 2004. – B. 110-115

16 Pedagogik mahorat Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 12-son (2024-yil, dekabr)

17 Grosheva I. V., Mirziyoyeva Sh. Sh., Yevstafyeva L. G., Maxmudova D. T., Nabixanova Sh. B., Pak S. V., Nazarova V. A., Isxakova M. R., Abdunazarova N. F. "Ilk qadam" DO'D 2022 yil 4-fevral

18 Климов Е. А. Введение в психологию труда. Учебное пособие для студентов вузов. – М.: Изд-во МГУ,



Kasbga yo'naltirish nazariyasi kasb-hunarga yo'naltirish faoliyatini samarali tashkil etishga qaratilgan turli xil qarashlar majmuasi, g'oyalar va tasavvurlar yig'indisi bo'lib, u ayni vaqtda ikki jarayonni bir-biriga bog'liqligi qonuniyatlari to'g'risida to'liq tasavvur beradigan ilmiy bilimlarni tashkil etish shakli, yoshlarni shaxsiy qiziqishlari, layoqat va qobiliyatlariga mos keladigan, jamiyat uchun zarur kasblarga yo'llashdir.

Kasbga yo'naltirish nazariyasining tarkibiy qismlariga: dalillar, qonuniyatlar va tamoyillar kiradi.

Kasbga yo'naltirishda ilmiy metodlar asosida olingan ishonchli dalillar juda oz bo'lishi sababli, bu boradagi muhim vazifalar yangi dalillarni yig'ish hisobiga, bir yoki bir necha farazlar yordamida amalga oshiriladi. Masalan, har bir hududda yoshlarni ma'lum bir kasbni tanlashlariga ta'sir ko'rsatadigan o'ziga xos omillar mavjud.

Kasbga yo'naltirish nazariyasining ikkinchi tarkibiy qismi – qonuniyatlardir. Qonuniyatlarni bilish ilmiy tadqiqotning asosini tashkil etadi. Topilgan qonuniyatlar fanning maxsus tilida kasb-hunarga yo'naltirish tushunchasini boshqa fanlarga oid tushunchalar bilan o'zaro aloqadorligini ma'lum aniqlikda ifodalaydi.

Har bir nazariyaning rivojlanganlik darajasi faoliyat asosidagi mavjud tamoyillar tarkibi va sifati bilan aniqlanadi. Kasbga yo'naltirish tamoyillarini belgilashda quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- ongllilik;
- muvofiqlik (shaxs qiziqishlari qonuniyatlari bilan jamiyat uchun zarur bo'lgan kasblarga nisbatan ehtiyojning mos kelishi);
- kasb tanlash faolligi;
- rivojlantirish (ushbu tamoyil kasbning shaxs rivojlanishiga xizmat qilishi lozimligi haqidagi g'oyani o'zida aks ettiradi).

Kasb-hunarga yo'naltirish nazariyasida kasb tanlashdagi muvaffaqiyat shaxsning qobiliyatlari, qiziqishlari, fe'l-atvori va temperamenti kabi xususiyatlarini kasb tomonidan mutaxassisga qo'yiladigan talablarga muvofiq kelishi bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tilgan. Shunga ko'ra, inson tomonidan kasb-hunarni to'g'ri tanlash asosida quyidagi omillar mavjud:

1. Insonning individual xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari, qiziqishlari;
2. Kasbning insonga qo'yadigan talablari, xususiyatlari;
3. Birinchi va ikkinchi omillarning o'zaro bo'g'liqligi¹⁹.

Agar inson qobiliyatlariga kasbiy o'z-o'zini belgilash nuqtayi nazardan yondashadigan bo'lsak, ular kasbiy yaroqlilikni beruvchi muhim kasbiy xususiyatlar sifatida namoyon bo'ladi. Bunda kasbiy yaroqlilikni insonni ma'lum kasb sohasida ijtimoiy maqbul samaradorlikka erishishi uchun yetarli va zarur bo'lgan psixologik va fiziologik xususiyatlari majmuasi, deb qarash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Demak, maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ham biz kasb-hunarga qiziqishlarini shakllantirganimizda, ularning mavjud holatlari, imkoniyatlari, qobiliyatlari hamda qiziqishlarini inobatga olishimiz lozim. Bu jarayonda har bir bolaning individual xususiyatlari, shaxsiy qobiliyatlari va mavjud imkoniyatlari hisobga olingan holda, pedagogik va psixologik yondashuvlarni uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda erta yoshdan kasbga qiziqishni shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy motivatsiyasini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu sababdan, tarbiyachilar va ota-onalar hamkorligida ta'lim-tarbiya jarayonini puxta tashkil etish, bolalarning qiziqishlarini qo'llab-quvvatlash hamda ularda ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.09.2023-yildagi PF-158-son.
2. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun, O'RQ-595-son, 16.12.2019-yil.
3. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti, 802-sonli Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.12.2020-yil.
4. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, PQ-4312-son, 08.05.2019-yil.
5. "Ilk qadam" takomillashtirilgan davlat o'quv dasturi, 2022-yil.
6. Anderson, C., & Thompson, K. (2018). The impact of digital technologies in early childhood education. Journal of Educational Technology & Society, 21(3), 48–59.
7. Kuchibayev, A., & Shodiev, N. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati. Maktabgacha ta'limda innovatsiyalar, 5(1), 102–115.
8. Djamilova, N., Isabekova, D., & Abduqodirova, O. (2023). Directing preschool children to profession at the early age. Science and Innovation, 2(B9), 500–507.

¹⁹ Abdullayeva Sh.I. Kasbiy psixologiya : o'quv qo'llanma /. – Toshkent, 2022. – B.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.